XALQ DEPUTATLARI ARNASOY TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr VII-12-203-3-43-K/25 Arnasoy tumani

2026-yil uchun Arnasoy tumanining mahalliy byudjeti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-,24-moddalari, Byudjet kodeksining 27-,99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son qonuniga va xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-23-350-3-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Jizzax viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 02-01-01-167-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Arnasoy tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-23-350-3-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Arnasoy tumani mahalliy byudjetining 2026 yilgi daromadlari **53 233,7 ming so‘m** va xarajatlari esa **77 814,8 ming so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Arnasoy tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **298,0 ming so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Arnasoy tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda 2026-yilda umumdavlat

soliqlaridan tuman mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori 2-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy byudjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi 4-ilovaga muvofiq, shuningdek tuman byudjeti yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **784,7 ming so‘m** miqdorida belgilansin.

5. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 6-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Z.Ismatov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari (M.Eshboyev), tuman Soliq inspeksiyasi (N.Otaqulov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qaror 2026-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Avalboyev) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Z.Ismatov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **MUSANOV ODIL OLIMOVICH**

Xalq deputatlari Arnasoy tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-12-203-3-43-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Arnasoy tumani mahalliy byudjetining daromadlarining 2026-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘m

T.r.	Daromad turlari	Kontingent reja	Mahalliy reja
JAMI		**71 216 151**	**53 233 751**
1	Foyda solig‘i	1 003 000	1 003 000
2	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	17 523 000	3 504 600
3	Aylanmadan olinadigan soliq	3 902 000	3 902 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	25 715 300	24 989 300
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	299 700	299 700
6	Aksiz solig‘i jami	172 000	172 000
6,1	*alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)*	0	*0*
6,2	*pivo*	0	*0*
6,3	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*172 000*	*172 000*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	*1 358 000*	1 214 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	2 195 000	2 195 000

9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	4 332 000	3 998 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	3 652 151	3 652 151
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	*6 998 000*	4 238 000
	shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	*6 900 000*	6 900 000
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	*2 760 000*	2 760 000
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	12 000	12 000
13	Davlat boji	1 840 000	1 840 000
14	Yig‘imlar	586 000	586 000
15	Jarimalar	1 581 000	1 581 000
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	47 000	47 000

Xalq deputatlari Arnasoy tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-12-203-3-43-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yilda umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

№	Soliq turlari	Hududlar nomi	Soliq to‘lovchilar	Ajratma me’yori
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	Tuman byudjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	100%
			HST	0%
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i**	Tuman byudjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	100%
			HST	0%
3	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	Tuman byudjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	0%
			HST	0%
4	Foyda solig‘i***	Tuman byudjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	100%
			HST	0%

5	Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	Tuman byudjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat byudjetiga	YST	0%
			HST	0%
6	Pivo	Tuman byudjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat byudjetiga	YST	0%
			HST	0%
7	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	Tuman byudjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	100%
			HST	0%
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Tuman byudjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	100%
			HST	0%
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Tuman byudjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	100%
			HST	0%
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman byudjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	0%
			HST	0%

11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman byudjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	0%
			HST	0%
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	Tuman byudjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	0%
			HST	0%
13	Aylanmadan soliq	Tuman byudjetiga		100%
		Viloyat byudjetiga		0%
14	Davlat boji	Tuman byudjetiga		100%
		Viloyat byudjetiga		0%
15	Jarima	Tuman byudjetiga		100%
		Viloyat byudjetiga		0%
16	Yig‘imlar	Tuman byudjetiga		100%
		Viloyat byudjetiga		0%
17	Davlat aktivlarini sotishdan tushum (Xususiylashtirish)	Tuman byudjetiga		50%
		Viloyat byudjetiga		50%
18	Mulk va yer huquqini auksion orqali sotishdan tushum	Tuman byudjetiga		50%
		Viloyat byudjetiga		50%

Izoh: HST - Hududiy soliq to‘lovchilar, YST - Yirik soliq to‘lovchilar

* *Mazkur soliq turlaridan tashqari boshqa daromadlar (3450950, 3450960 va boshqalar) Iqtisodiyot va moliya vazirligi belgilab bergan tartibda shahar (tumanlar) va viloyat byudjetlariga ajratma qilinadi.*

** *Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari.*

*** *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatgi amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari*

Xalq deputatlari Arnasoy tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-12-203-3-43-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun Arnasoy tumani byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

T.r.	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Summa
Xarajatlar miqdori, jami		**77 814 838,0**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	25 233 523,0
	shundan:	
	"Mening maktabim"	1 174 200,0
2	Madaniyat bo‘limi	3 852 665,0
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	1 705 323,0
4	Sport bo‘limi	4 626 289,0
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 576 272,0
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	2 558 054,0
7	Irrigatsiya bo‘limi	1 054 707,0
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2 393 027,0
9	Davlat soliq inspeksiyasi	
10	Hokimiyat	18 842 196,0
	shundan:	
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*0,0*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	*0,0*

	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*9 888 000,0*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*345 000,0*
	Zahira jamg‘armasi	*784 763,0*
11	Hokimyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	912 504,0
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*0,0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*912 504,0*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	15 060 278,0
13	Boshqa tashkilotlar	0,0

Xalq deputatlari Arnasoy tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-12-203-3-43-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Arnasoy tuman mahalliy byudjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	**Mahalliy byudjetlarning jami daromadlari**	**Shundan**		**Mahalliy byudjet xarajatlari**
		Mahalliy byudjet daromadlari	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**	
Arnasoy tumani	77 814 838,0	53 233 751,0	24 581 087,0	77 814 838,0

Xalq deputatlari Arnasoy tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-12-203-3-43-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Arnasoy tumani mahalliy byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T.r.	Hudud nomi	Miqdor
1.	Arnasoy tumani	**298 000,0**

Xalq deputatlari Arnasoy tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-12-203-3-43-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T.r.	Hudud nomi	Koeffitsiyent	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (ming so‘mda)
1	Baxtli MFY	0,71	36 425 840,0
2	Bobur MFY	0,83	42 582 320,0
3	Bo‘ston MFY	0,72	36 938 880,0
4	G‘oliblar MFY	0,83	42 582 320,0
5	G‘afur G‘ulom MFY	0,82	42 069 280,0
6	Do‘stlik MFY	0,71	36 425 840,0
7	Oltin Vodiy MFY	0,82	42 069 280,0
8	Tinchlik MFY	0,70	35 912 800,0
9	Chinobod MFY	0,70	35 912 800,0
10	CHo‘lquvar MFY	0,70	35 912 800,0
11	Yangibo‘ston MFY	0,72	36 938 880,0

Xalq deputatlari Arnasoy tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-12-203-3-43-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T.r.	Hudud nomi	Koeffitsiyent	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘mda)
1	Baxtli MFY	0,70	287,65
2	Bobur MFY	0,88	361,62
3	Bo‘ston MFY	0,70	287,65
4	G‘oliblar MFY	0,88	361,62
5	G‘afur G‘ulom MFY	0,78	320,53
6	Do‘stlik MFY	0,70	287,65
7	Oltin vVodiy MFY	0,78	320,53
8	Tinchlik MFY	0,70	287,65
9	Chinobod MFY	0,70	287,65
10	Cho‘lquvar MFY	0,70	287,65
11	Yangibo‘ston MFY	0,71	291,76